

o'simliklar va hayvonlar biomassasidan oqilona foydalanish zarurligini har birimiz tushunishimiz zarur.

 **Daftaringizga atamalarning ma'nosini yozib oling:** *ekologik piramida qoidasi, son piramidasи, biomassa piramidasи, energiya piramidasи.*

 **Bilimlaringizni qo'llang.**

- Ekologik piramida qoidasining mohiyatini aytib bering. Ekologik piramidalarning qanday turlari bor? Ularning xususiyatlarini tushuntiring?
- Son, biomassa va energiya piramidalari nimani aks ettiradi?
- Ekologik piramidalarning qaysi turi ekosistemaning trofik strukturasiga bog'liq emas?
- Tipik va teskari piramidalarga misollar keltiring.
- Inson faoliyatining qaysi sohalarida ekosistemalarning biologik mahsulorligi haqidagi bilimlar juda zarur? Javobingizni misollar bilan tushuntiring.



O'z fikringizni aiting.

- Illonning biomassasi yoz davomida 0,2 kg ga ortgan bo'lsa, «10% qoidasi»ga asoslanib o'tloqning ekologik piramidasini tuzing: o'tloq sebargasi → kapalak → baqa → ilon → ilonburgut.



2-laboratoriya mashg'uloti.

Mavzu. Oziq zanjiri va ekologik piramidalarga oid masalalar.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: ekologik piramida qoidalariga asoslanib masalalar yechish, tirik organizmlarning oziq zanjirida tutgan o'rnnini aniqlash, ekologik jamoalarda organizmlar o'rtasidagi biotik munosabatlarning matematik modelini tuzishni o'rganish.

Ishning borishi:

1-masala. O'tloq ekosistemasida quyidagi hayvonlar yashaydi: kapalak qurti, chittak, beda, qirg'iy. Shu hayvonlar yordamida oziq zanjiri tuzing.

2-masala. Berilgan tirik organizmlar va ularning ekologik guruhlari o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlab, jadvalga yozing: sebarga, ilonburgut, baqa, mikroskopik zamburug', qo'ng'iz.

Produtsent	
I tartib konsument	
II tartib konsument	
III tartib konsument	
Redutsent	

3-masala. III tartib konsumentning umumiy massasi 8 kg bo'lsa, oziq zanjiri komponentlarining umumiy massasini aniqlang va jadvalga yozing.

Oziq zanjiri komponentlari	Umumiy massasi
Fitoplankton	
Mayda qisqichbaqasimonlar	
Baliqlar	
Vidra	8 kg
Umumiy biomassa	

4-masala. Produtsentning biomassasi – 700000 kg, qarchig'ayning biomassasi – 7 kg. Qarchig'ay qaysi tartib konsument bo'la oladi?

5-masala. O'simlik – quyon – tulkidan iborat oziq zanjirida o'simlik biomassasi 100 t. Agar bir tulkinining massasi 10 kg bo'lsa, tulkilar populatsiyasidagi individlar sonini aniqlang.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.

1-masala. 2- va 4-tartib konsumentlarining umumiy biomassasi 1010 kg. 1-tartib konsumentlarning umumiy biomassasini aniqlang.

2-masala. Ekologik piramida qoidasidan foydalanib, dengiz ekosistemasida vazni 300 kg keladigan bitta tulen uchun oziq zanjirida qancha fitoplankton, mayda baliq, yirtqich baliq kerak bo'lishini aniqlang.

3-masala. Oziq zanjiri fitoplankton – baliqlar – baliqchi qushdan iborat. Baliqchi qushning massasi 1 kg (quruq moddaning ulushi 40%)ga teng. Bir yil davomida 2000 kg fitoplankton quruq massasi hosil bo'ladigan dengizda nechta baliqchi qush oziqlanishi mumkin?

4-masala. Oziq zanjiri o'simlik – juft tuyoqli hayvon – bo'ridan iborat. Ekologik piramida qoidasidan foydalanib, bo'ri oziqlanishi mumkin bo'lgan biogeotsenozning maydonini (m^2) aniqlang. O'simliklar biomassasi 2000 g/ m^2 ga teng, organizmlar tanasi massasi ulushining 70% ini suv tashkil etadi (bo'rining vazni 55 kg).

5-masala. Ko'rshapalakning yangi tug'ilgan ikkita bolasining har biri 1 g massaga ega. Bir oy davomida onasi ularni sut bilan boqdi, natijada ularning vazni 4,5 g ga yetdi. Shu vaqt ichida ona ko'rshapalak qancha hasharotlarni tutib yeydi? Shu hasharotlar oziqlanadigan o'simliklarning massasini aniqlang.

19-§. TABIIY EKOSISTEMALAR

 **Tayanch bilimlaringizni qo'llang.** *Ekosistemalar qanday qismlardan tashkil topadi? Ekosistemlardagi qanday organizmlar produtsent, konsumentlar va redutsentlar deyiladi?*

Sayyoramizdagi ekosistemalar juda xilma-xil. Kelib chiqishiga ko'ra ekosistemalarning quyidagi xillari farqlanadi. 1. Tabiiy ekosistemalar – bu